

ISSN 2181-1601

SCIENTIFIC PROGRESS

Scientific Journal

VOLUME # 1 ISSUE # 6

2021/IV

ACCEPTANCE AREAS OF THE JOURNAL

- mathematics, physics, informatics;
- chemistry, ecology, geography;
- advances in biology and medicine;
- history, law, aesthetics;
- philology and language teaching;
- physical education and sports;
- music, art and culture;
- philosophy, logic and sociology;
- architecture and economics;
- pedagogy, psychology, defectology

www.scientificprogress.uz



SCIENTIFIC PROGRESS

Scientific Journal

VOLUME #1, ISSUE #6, APRIL 2021

ISSN: 2181-1601



UZBEKISTAN

BUXOROLIK MINIATURACHI-RASSOM SADRIDDIN POCHCHAYEV IJODIGA BIR NAZAR

Bobir Baxtiyorovich Boltayev

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi

boltayev74@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buxorolik mashhur miniaturachi-rassom Sadridin Pochchaevning Buxoro amirligining so'nggi davri va sobiq sho'ro hukumati davri tarixini yorituvchi asarlari manba sifatida o'rganib chiqilgan va ilmiy tahlil qilingan. Xususan, o'rta asrlar, amirlik davri, sobiq sho'ro davridagi tarixiy voqealar, syujetlarni aks ettiruvchi miniatyuralar, portretlar, zargarlik buyumlari o'rganilgan. Bundan tashqari maqolada buxorolik mashhur miniaturachi-rassom Sadridin Pochchaev tomonidan yaratilgan asarlar ko'rgazmasiga barchani Buxoro badiiy san'at muzeyiga tashrif buyurishni tavsiya etgan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, miniatura, Buxoro badiiy san'at muzeyi, Sadridin Pochchayev, musavvir (rassom).

A LOOK AT THE WORK OF BUKHARA MINIATURIST-ARTIST SADRIDDIN POCHCHAYEV

Bobir Bakhtiyorovich Boltaev

Senior Lecturer, Bukhara State University

boltayev74@mail.ru

ABSTRACT

This article examines and scientifically analyzes the works of the famous Bukhara miniature artist Sadridin Pochchaev, which illuminates the history of the last period of the Bukhara Emirate and the former Soviet government. In particular, the study of the Middle Ages, the Emirate, historical events of the former Soviet era, miniatures, portraits, jewelry depicting the plots. The article also recommended that everyone visit the Bukhara Museum of Fine Arts for an exhibition of works by the famous Bukhara miniature artist Sadridin Pochchaev.

Keywords: Bukhara Emirate, miniature, Bukhara Museum of Fine Arts, Sadridin Pochchayev, artist.

KIRISH

Buxoro davlat muzey-qa'riqxonasi O'zbekiston tarixining turli bosqichlarini mujassam etgan moddiy va ma'naviy madaniyat ashyolarini saqlash, o'rganish va namoyish etish bilan shug'ullanadigan yirik markazlardan biri bo'lib, bir asr davomida faoliyat olib bormoqda. Buxoro vohasi hududida olib borilgan arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar natijasida to'plangan ko'plab uy-ro'zg'or buyumlari, an'anaviy kiyim-kechak namunalari, tangalar, qo'lyozma va rasmiy hujjatlar muzey jamlanmasining asosini tashkil etgan holda, mutaxassislar tomonidan o'rganilmoqda. Shu bilan bir qatorda, hajmi jihatidan katta bo'lmagan tasviriy san'at jamlanmasida XIX asrning oxiri – XX asrda faoliyat olib borgan rassomlarning asarlari to'plangan bo'lib, ular orasida Buxorolik miniaturachi-rassom Sadridin Pochchayevning ijodiy ishlari Buxoro san'ati va madaniyatining Mang'itlar davridagi tarixi bo'yicha muhim manba sifatida ahamiyatga ega.

ASOSIY QISM

Sadridin Pochchayev minaturasi XX asr boshlaridagi siyosiy-iqtisodiy bo'htonlarga qaramay Buxoroda asrlar mobaynida shakllanib, sayqal topgan xalq amaliy san'ati yashashni davom ettiradi. Uning boy va xilma-xil turlari hamda shakllari orasida Buxoro naqqoshligi va minyaturasini alohida ta'kidlash mumkin. Bu hunarni yangi yuz yillikga opichlab olib o'tgan serqirra xalq ustalari Nabijon Hafizov va zargar Sadridin Pochchayevlardir[1].

Sadridin binni Pochcha (Pochchayev) (1870-1948 yillar) Rometan tumanining payshanba qishlog'idan bo'lib yoshligidan otasidan yetim qoladi. Mashaqqatli yetimlik yillaridan keyin 10 yoshida onasi uni buxorolik zargar usta Mirazimga shogirdlikka beradi. 20-yillik shogirdlikdan keyin, noyob iste'dod egasi Saddridin Pochchayev Buxoro Amiri Abdulaxadxon (1885-1910 yillarda) hamda amir Sayid Olimxon (1911-1920 yillar) hukmronlik davrida saroy zargari sifatida Arkoni davlatidagi maxsus saroy hunarmandlari shug'ullanadigan joyda faoliyat ko'rsatadi. Bu yerda ko'plab ustalar qatori mohir zargar Sadridin Pochchayev ham zargarlik zebi-ziynatlari va saroy buyumlarini yasaydi. Maxsus yerto'lada kumush va oltindan Buxoro tangalarini zapt qilishda ishtirok etadi. 1920-1924 yillarda yangi tashkil qilingan hunarmandlar shirkatida faoliyat ko'rsatadi. Yangi shakldagi buyumlarni: sigaret qutichasi, tamakidon, sandiqcha yasaydi. Oltin va kumush toshlar musodora qilinib davlat ixtiyoriga o'tgach, zargarlar ta'qib ostiga olingan Sadridin Pochchayev o'zi uchun yangi bo'lgan hunar minaturalar chizishga kirishadi. Tasodifiy baxtsizlik san'at sohasiga yangi bir sohada muvofaqiyatlar Sadridin Pochchayev ijodiga xos holatdir. Musavvir ancha yoshga kirib qolganiga qaramay, bu sohada ham sezilarli yutuqlarga erishadi. Sadridin Pochchayevning miniaturachi usta sifatidagi ilk ishi Buxoro so'ngi amirining

buyurtmasi, hind traktati “Lazzatil-niso” qo’lyozmasiga ishlangan illyustratsiya miniatyuralari hisoblanadi [2]. 50 dan ortiq miniatyuradan iborat bu qo’lyozma Buxoro davlat muzey qo’riqxonasi fondida saqlanmoqda. Mashhur zargarning miniatyura sohasida ijod qilishida yangi tuzumning hunarmandlarga ayniqsa zargarlarga nisbatan tutgan siyosati bilan bog’liq S.Pochchayevning mashhur miniatyurachi bo’lib yetishishida ko’p qirrali ijodkorning O’rta Osiyo miniatyurasiga bo’lgan katta qiziqishi ham muhim rol o’ynaydi. Usta uchun yangi sohada yutuqlarga uning zargarlikdagi istedodi va tajribasi bilan birga, zargarlikda ishlangan haqqoqi uslubi- emal bilan kandakori qilingan naqshlar satxiga ishlov berish, to’ldirishi ham yordam beradi. Bundan tashqari zargarlik buyurtmachilari undan buyumlarga go’zal rango-rang naqshlar solishni tez-tez so’rab turishlari ham uning bu sohaga befarq qoldirmadi. Shirkat tuzilgan zargarlarga buyurtmachi asosan davlat bo’lib qoladi. Bu paytda targ’ibot - tashviqot ishlarida har xil plakatlar, shiorlar chaqiriqlarni milliy naqshlarni bilan bezash va arab yozuvida chiroyli husnixat yozadiganlar kerak edi. Ana shu ishlar ham nabijon Hafizov va Sadridin Pochchayevlar zimmasiga yuklatiladi. Qatag’onlikga uchramaslik uchun ham ushbu ijodkorlar o’zlarining sevimli hunaridan uzoqroq bo’lgan ish bilan shug’ullanishga to’g’ri keldi.

Ammo keyinchalik miniatyura chizishni ustadan hech kim so’ramasada u o’z qiziqishi bilan bu sohada ijod qilishni davom ettiradi[3]. XIX-XX asr boshlaridagi o’zbek miniatyurasining so’ngi vakili hisoblangan Sadridin Pochchayevning 28 dona alohida qog’ozga chizilgan miniatyura asarlari Buxorodagi Kamoliddin Bekzod nomidagi “San’at muzeyi”da saqlanmoqda. Ular 1945 yilda muzey tomonidan Sadridin Pochchayevdan sotib olingan. Ushbu miniatyuralarni 4 guruhga bo’lish mumkin:

1. Me’moriy yodgorliklar tasviri
2. Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag’ishlangan miniatyura
3. Qo’lyozma kitoblarga ishlangan miniatyuralar
4. Zamonaviy mavzuda chizilgan miniatyuralar

Sadridin Pochchayev 1920-1930 yillarda chizgan ushbu miniatyuralarning birinchilari Eron va Hindiston miniatyuralaridan nusxa ko’chirib yaratilganlaridir. “Tusdagi maqbara” 1925 yil, “Eron arxitektura yodgorliklari” 1925 yil, “Varshava me’moriy obidalari” 1926 yil, “Turkiyadagi masjid” 1927 yilda va “Ka’ba masjiti” 1927 yilda shular jumlasidandir. Ushbu mashqlardan keyin esa, Sadridin Pochchayev Buxoro yodgorliklarini naturadan chizishga jazm qiladi va nihoyat uning taniqli “Ismoil Samoniy maqbarasi” 1929yil, “Chor minor”1929 yil minoralar qatorida, “Minorai kalon” va “Miri arab madrasasi” 68x50sm 1929 yil, “Ka’ba” 67x45 sm 1929 yil miniatyuralari yaratildi, ushbu miniatyuralar o’lchamiga ko’ra ancha yirik. Bu yerdagi asarlar miniatyurachi rassom naqqoshlikga yaqin ijodkor ekanidan darak beradi. Ayniqsa, yodgorliklarning qoshinkori va naqqoshkor zargarona ishlanishi ustaning qo’li

zargarniki ekanini eslatib turadi. Hind miniatyuralarini ijodiy o'rganib, ulardan nusxa ko'chirish jarayonida uning "afsonaviy hayvon mingan avliyo" 16x18 sm 1930 yil asari dunyoga kelgan. Unda ho'kizsimon hayvon ustiga mingan bir qo'lida hukmronlik gurzisini ushlagan Hind milliy libosidagi ayol tasvirlangan. Uning qiyofasi keskin va mag'rur ko'krak tomoni yarim kofta va pastki tomoni yarim beli yupkasimon kiyim bilan o'ralgan. Boshida murakkab o'ramli sallasimon bosh kiyimi o'ziga yarashib turibdi. Hayvonning dumi ilonga, boshi ilon boshiga o'xshab ketadi. Tasvir yengil va erkin chizma orqali harakatda ko'rsatilgan. Bu miniatyura hind nusxasidan olinganmi yoki musavvirning mustaqil ishini aniqlash qiyin. Ammo, Pochchayev miniatyuralariga xos tasvir vositasida chizilgani ko'rinib turibdi. Ushbu miniatyuralar maxsus tanlangan papiros qog'oziga ishlangan. Mustaqil sujetli miniatyuralarga Sadriddin Pochchayev bu san'atning akademik qobig'idan chiqqan holda moy bo'yoq uslubiga yaqin vositalarda mo'yqalam tebratgan. Asosiy bo'yoq akvarel, guash, ayrim hollarda moy bo'yoq ham ishlatilgan Hindiston seriyasidagi ishlari faneraga boshqalari qog'ozga, "sharf o'rgan ayol" (24x15,5sm) va "Bog'da" (24x15,5sm) asarlari esa boshqa uslubda ishlangan. Uning ushbu guruhga kiruvchi "Xofiz va kanizak Shaxnabot" (9,5x9,5sm) 1932 yil asarida old planda portretga xos holatda bir-biriga she'r aytayotgan oshiq shoir va mashuqa kanizak tasvirlangan[4].

"Shaxzoda burgut ovida" 1930 yil (18x16sm) asarida old tasvirda maxsus qo'lqopli o'ng qo'lida burgutni qo'ndirib, qarab turgan ovchi, cho'kkalagan holda qarchig'ayga nimalarnidir uqtirib turibdi. Uzun, ammo, gavdasiga yopishib turgan kiyim ustidan fata o'ralgan, boshida qishki telpaksimon bosh kiyimi o'ziga yarashib tushgan. Orqa planda daraxtzor va gullarga burkangan bog' cheksiz holda tasvirlangan. Miniatyuraga xos yil fasllarini bir vaqtda ramziy tasvirlash ushbu asarda ko'zga tashlanadi. "Arg'imchoq uchayotgan boy xotinlar" (18x26sm) 1930 yil hayotiy sujetli ish bo'lib miniatyura vositasida mavjud mavzuni ochib berishga dadil urinishini musavvir tomonidan qay darajada bajarilganini kuzatamiz. Oysimon o'sgan ulkan daraxt tagida yetti nafar bashang kiyingan ayollar navbat bilan arg'imchoq uchmoqda oldindan oqayotgan suvda o'rdaklar va turli tuman qushlarsuzyapti. Daraxt shoh-shabbasining bir qismigina qog'ozga sig'dirilgan bo'lib, boqiylik deraza oynasidan kuzatilgandek ko'rsatilgan.

Sadriddin Pochchayev ijodida kitob miniatyurasi ham muhim o'rin tutadi. Yuqorida eslaganimizdek, "Lazzatil niso" miniatyurasidan tashqari u Abduraxmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" dostoniga Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin" dostoniga, "To'tinoma" qo'lyozmasiga miniatyuralar ishlab, an'anaviy o'rta osiyo kitob miniatyurasini XX asrga munosib olib o'tgan xassos musavvir sifatida san'at tarixiga kirdi. Uning ushbu qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralarida bir tomondan an'anaviy

o'rta osiyo miniatyurasini chuqur o'rganib unga amal qilgan holda XIX asr boshlarida xos yangilanishni ham kuzatamiz[5].

U yaratgan tasvirlar ortiqcha unsurlardan xoli, sal sayoz, xalq og'zaki ijodiga xos samimiylik ortiqcha dabdabasiz va xalqchil, bir oz primitiv xarakterga ega ushbu o'ziga xos uslub, uning yangi zamonaviy mavzularda yaratgan miniatyuralari "saylovlar" va "paxta terimi"da yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Saylovlar mavzusi musavvir uchun yangilik bo'lib, u bolalarcha soddalik bilan naturadan sujetli kompazistiya hosil qilgan. Kattagina xona bayramona shiorlar bilan bezatilgan, old tasvirda quttiga saylov byulitenini tashlayotgan saylovchi qarshisida kuzatuvchi ayol stulda o'tiribdi. Ikkinchi tomonda xontaxta ustiga tuvakda gullar qo'yilgan, sal orqaroqdan milliy kiyimdagi ayol saylov kamerasidan chiqib kelyapti, chap tomonda saylov varaqasi tarqatayotgan 3 kishi va saylovchilar guruhi o'ng tomonda orqa planda ikki kuzatuvchi saylov kameralarini tikka turib qo'riqlamoqda. Bir tomondan asarda odamlar tarqoq joylashgandek tuyulsada ammo lekin ushbu usul bilan rassom parakatni va ko'pchilik tasvirini bir yerga jamlab murakkab vazifani mohirona yecha oladi.

"Paxta terimi" miniatyurasi undan ham ustalik bilan bajarilgan. Qiyg'oz ochilgan paxtazor markazdan tikka ikkiga bo'lingan. Bir tomondan 7 nafar chevar xotin-qizlar paxta teryapti, chap tomonda 4 nafar erkaklar terim bilan band. Bu bilan musavvir qaynoq terim polatini ko'pchilik kompozistiyani zukkolik bilan yarata olgan. Bir jihatdan miniatyuraning oltin qonuniyati buzilgandek bo'lsada yangi davr ruhida chizilgan miniatyura o'z badiiyligini yo'qotgan. Rassom ushbu ishni dadillik bilan bajarganligi, u aynan shu maqsadda qilqalam tebratganidan dalolat. Miniatyurachi Sadriddin Pochchayev ijodining qaymog'i uning buyuk mir Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan 6 dona miniatyuralari hisoblanadi. Ushbu turkum buyuk shoirning bolaligidan boshlanib vafoti bilan yakunlanadi. Alisher Navoiyning zamondoshi tarixchi Xondamirning yozishicha Alisher 4 yoshida maktabga borgan, birinchi miniatyurada Alisherning onasi uni maktabga olib borgan holati tasvirlangan. Old ko'rinish ustoz o'qituvchi, Alisher hamda onasi, orqa tasvirda boshqa o'quvchilar hamda maktab xonalarining eshiklari va bog' joylashgan. Alisherning qo'lida kitob. Yelkasida esa sumka osilgan[6].

Qolgan uchta miniatyurada u ulug' shoir hayotining eng muhim davrlarini yoritgan. Ma'lumki, 1472 yilda Alisher Navoiyning bolalikdan birga o'sib ulg'aygan do'sti sulton Xusayn Boyqaro uni Amir unvoniga tavsiya etadi, keyin esa vazir qilib tayinlaydi. Ana shu davrdan boshlab, shoir Alisher Navoiy bunyodkorlik ishlariga yanada qiziqib ketadi. Shoir o'zining ona shahri Hirot va Xuroson o'lkasining obodligi uchun tinmay yelib yuguradi, karvon yo'llari, ko'priklar, bog'lar bunyod qiladi. Injil kanali bo'yida yangi shahar barpo qildiradi. Ushbu shaharda kasalxonalar, maktabxonalar, yolg'izlar, yetimlar uylari va boshqa muxtasham binolar qad ko'taradi

Hirod ravnaqida Alisher Navoiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur shunday yozadi: "Ilm va san'at ahliga Alisherbek singari homiy qachonlardir o'tganligi kishilarga ma'lum emas. Ustod Qulmuhammad, Shayx Navoiy va Husayn Idiy singari ulug' mug'anniylar Alisherbek madadi va qo'llab quvvatlashi sharofatidan shonushuxrat shohsupasiga maqom tutadilar.

Ustod Kamoliddin Bekzod va Shoh Muzaffar Alisherbekning g'amxo'rliqi va sa'yi harkatlari tufayli mashhur bo'lishdi. Kamdan kam odamlargina Alisherbek qurdirgan foydali binolarchalik imoratlar bunyod ettirishga muyassar bo'lganlar. (Boburnomadan) Sadriddin Pochchayev miniatyurasida buyuk shoirning bunyodkorlik faoliyatini mohirona tarzda hikoya qiladi. Minglab usta quruvchilar, tosh-tarosh, naqqosh, suvoqchi, g'isht teruvchi va naqqoshlar xizmatini kichkina hajmli miniatyura qog'ozlariga mohirona tushuradi. Bu asarlar xalq hayotining real tasviri bo'lib, unda kundalik turmush lavhalari o'ziga xos uslubda yaratilgan. Bu turkumga kiruvchi beshinchi asarda musavvir ulkan fojiani tasvirlashga harakat qiladi. Unda Alisher Navoiyning vafoti oldidan ro'y bergan voqea tasvirlangan.

Xondamirning yozishicha, bu voqea 31 dekabr 1500 yilda Xo'ja Abbosda, tarixchi Xondamir ko'z oldida sodir bo'lgan. Sulton Husaynning amaldori Xo'ja Shaxobiddin Abdulla podshoh izvoshi Alisher Navoiy huzuriga yaqinlashayotgani haqida xushxabarni yetkazadi. Qadr-don do'sti yaqinlashayotganidan xabar topgan Alisher Navoiy, uning istiqboliga chiqish uchun shoshiladi. Lekin ko'p o'tmasdan noxush xodisa sodir bo'ladi. Alisher birdan o'zini yomon his qila boshlaydi. U yonmayon o'tirgan Xo'ja Abdullaga "Men o'zimni yomon his qilayapman, menga nima bo'layapti?" deb yuzlandi. Shu vaqtda kelib sulton Husaynning izvoshi ularga yaqinlashadi, Alisher esa zo'rg'a otdan tushib, orqada turardi. U bir qo'lini Xo'ja Abdullaning yelkasiga, ikkinchisini Xondamir kiftiga qo'yib, qadr-don do'sti Husayn Boyqaroga talpinadi. Sulton qo'lini olib ko'ziga surtib, kaftidan o'padi. Ammo shu zahoti o'zidan ketib yerga o'tiradi. Ana shu voqeani S.Pochchayev nihoyatda zukkolik bilan tasvirladi. Uning ulug' shoirga bo'lgan hurmati ushbu asarida o'z aksini topgan. Turkumning oxirgi miniatyurasi Alisher Navoiyning marosimiga bag'ishlangan. Ko'k matoga o'ralgan shoir tobutini so'ngi manzilga kuzatayotgan ahli Hirod katta motamda. Shahar go'yoki huvillab qolgandek, odamlar boshi ham, uzoqda yum-um yig'layotgan saroy ayollari bundan katta qayg'uni, musibatni ichlariga yutib turgani tasvirlangan. Bu judolik 1501 yilning 3 yanvar tongida sodir bo'lgan edi.

XULOSA

Musavvir ushbu turkum asarlarini bosiq, vazmin ranglarda chizgan. Unga xos yorqinlik bu yerda ko'rinmaydi. Tasvirlanayotgan voqeaga qarab rang tanlangan. Bu yerdagi eng yorqin rang to'q sariq rang bo'lib, asosan, bosh qahramon gavdasi

boshqalaridan yirikroq qilib tasvirlangan. Sadriddin Pochchayev o'zi yashagan davrning ruhiyatini o'zi chizgan miniatyularida aks ettira olgan ijodkor hisoblanadi. U qadimgi O'rta Osiyo miniatyurasini O'rta asrlardan XIX asrgacha rivojlantirib, olib o'tgan buyuk ijodkorlar ishini yangi XX asrgacha opichlab o'tgan uni yangi zamon ruhi bilan boyitgan rassomdir[7]. Uning ijod namunalari nisbatan kamsonli bo'lsa-da, badiiy jihatdan o'ziga xos salmoqqa ega favqulotda go'zal san'atdir.

REFERENCES

1. Pak V.F. Buxoro sovet rassomlari ijodida. Katalog, 1991.
2. Альмеев Р.В. Бухара-город музеев .-Т.: 1999 г.
3. Альмеев Р.В. Бухара в легендах и фактах истории .- Т.: 1999 г.
4. Qayumov.A. Muzey ishining fidoyisi. Buxoro, 2000.
5. Buxoro davlat badiiy-memoriy muzey-qo'riqxonasi.-T.:2004,-B.45.
6. Nishonova K. Muzey xalq tarixining ko'zgusi.-T.:2011,-B.367.
7. Ochilov Alisher. "The Role of Zamanbaba Culture in The Social and Economic History of Bukhara Oasis During Bronze Age." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY 2.4 (2021): 42-47.
8. OCHILOV, Alisher. "JEWELRYC TRADITION IS A SOURCE OF STUDY OF BUKHARA HISTORY." Bayterek Uluslararası Akademik Araştırmalar Dergisi 1.1: 105-116.
9. Ochilov, A. T. "DATING OF THE ZAMANBABA CULTURE: ASSED ON ARCHAEOLOGICAL SOURCES." Theoretical & Applied Science 12 (2019): 589-591.

АТАБЕГ СУЛТОНОВ

Земля как вид залога для обеспечения кредита и вопросы формирования механизма ее реализации (pp. 982-989)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-180.%20982-989.pdf>

ХАСАН АЛИШЕРОВИЧ КУРБАНОВ, МУСТАФО ШАЙМАРДОНОВИЧ ЭШНАЗАРОВ

Инновационный методы мониторинга состояния бортов гидротехнических сооружениях примере Пскемской ГЭС (pp. 990-997)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-181.%20990-997.pdf>

BOBIR VAHTIYOROVICH BOLTAYEV

Vuxorolik miniaturachi-rassom Sadriddin Pochchayev ijodiga bir nazar (pp. 998-1004)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-182.%20998-1004.pdf>

Б. Б. УМАРОВ

Н.А.Кисляков тадқиқотларида Жанубий Тожикистон этник тарихи (pp. 1005-1009)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-183.%201005-1009.pdf>

ГУЛИ БАХРИТДИНОВНА ТЎРАЕВА, ФЕРУЗА ХОЛМАМАТОВНА ЎТАЕВА, НИЛУФАР АХМАТОВНА ЖУМАЕВА

О.А.Сухарева тадқиқотларида Бухоро тарихи ва этнографиясининг ўрганилиши (pp. 1010-1018)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-184.%201010-1018.pdf>

НИКМАТИЛЛА SHERZODJON O'G'LI NE'MATONOV

MATLAB dasturida elektr energiya tizimidagi katta turtkilar natijasidagi dinamik turg'unliginig matematik va fizik modellarining tahlili (pp. 1019-1023)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-185.%201019-1023.pdf>

ABDUVOXID ABDUG'AFFOR O'G'LI ABDULLAYEV

Elektr energetikasi mutaxassislik fanlarini o'qitishda Microsoft Excel dasturiy vositasidan foydalanish (pp. 1024-1028)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-186.%201024-1028.pdf>

M. P. YUNUSOV, D. D. SHUKRULLAYEV

Qatlamlarni gidravlik yorish texnologiyasidagi muommolar va ularni texnik yechimlari (pp. 1029-1035)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-187.%201029-1035.pdf>

MUHAMMADZOXID XABIBULLO O'G'LI ABDUQODIROV, SHOXIDA RAXMATULLAYEVNA MANKAMOVA

Ikrom Akbarovning "Momo yer" musiqali dramasida xorning dramaturgik vazifalari haqida (pp. 1036-1038)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-188.%201036-1038.pdf>

БОБУРБЕК УЛУҒБЕК ЎҒЛИ МУМИНОВ

Юқори тезликдаги контакт тармоғи линиясида электродинамик жараёнлар (pp. 1039-1045)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/6-189.%201039-1045.pdf>